YASHIL IQTISODIYOTDA RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISHNING NAZARIY ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH MEKANIZMLARI	792
Karimov Islombek Bekpo'lat o'g'li	
OLIY TA'LIMDA ILMIY TADQIQOTLAR VA ISHLAB CHIQRISH INTEGRATSIYASI SAMARADORLIGI	798
Uzaydullayev Sherzod Shukurullayevich	
XUSUSIY MAKTABLARNING BOSHQARUV TIZIMINI QAROR QABUL TIZIMLARI VA O'RGANUVCHI ANALITIKASI YORDAMIDA YANGILASHNING YO'LLARI	802
Esanova Shohida	
MOLIYA BOZORIDA TIJORAT BANKLARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHDA ISLOMIY MOLIYA INSTRUMENTLARIDAN FOYDALANISH MEKANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	812
Abduraxmanova Matluba Maxamadaminovna	
KORXONALARDA KREDITOR QARZDORLIKNI BARTARAF ETISH YO'LLARI	819
Mirzaev Ozod Furkatovich	
ЛЕКСИЧЕСКАЯ КОМПЕТЕНЦИЯ КАК КЛЮЧЕВОЙ КОМПОНЕНТ ПРОДУКТИВНОЙ ПИСЬМЕННОЙ РЕЧИ	824
Киличева Феруза Бешимовна	
MODERN MECHANISMS FOR MONITORING REGIONAL DEVELOPMENT IN THE CONTEXT OF DIGITAL ECONOMY	828
Karimova Shirin Zokhid qizi	



АЛЬТЕРНАТИВНЫЕ МЕТОДЫ КРЕДИТНОГО СКОРИНГА ДЛЯ НАСЕЛЕНИЯ БЕЗ БАНКОВСКОЙ ИСТОРИИ В УЗБЕКИСТАНЕ	833
Шухратова Мадинабону Икром кизи	
SHAHAR EKOLOGIYASI: SHAHAR EKOTIZIMLARI VA BARQAROR RIVOJLANISH	841
Erkiniva Mukarram Olimjon qizi	
CHAKANA SAVDO XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI KORXONALARDA SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI	845
Abdug'aniyev Oybek Akmaljon o'g'li	



CHAKANA SAVDO XIZMATLARINI KO'RSATUVCHI KORXONALARDA SAMARADORLIKNI OSHIRISHNING XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASI



Abdug'aniyev Oybek Akmaljon o'g'li

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti mustaqil izlanuvchisi

oybekabduganiyev1995@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada chakana savdo xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda samaradorlikni oshirish masalalari xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida tahlil qilingan. Tadqiqot davomida rivojlangan davlatlarda chakana savdo sohasida qo'llanilayotgan zamonaviy boshqaruv, logistika va marketing yondashuvlari o'rganilib, ularni mamlakatimiz chakana savdo korxonalari faoliyatiga moslashtirish imkoniyatlari asoslab berilgan. Shuningdek, elektron savdo va xizmat ko'rsatish madaniyatini rivojlantirish orqali samaradorlikni oshirish yo'llari bo'yicha amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: chakana savdo, elektron savdo, savdo xizmatlari, logistika, marketing, savdo madaniyati, samaradorlik, boshqaruv tizimi.

Abstract. This article examines the issues of improving the efficiency of retail enterprises based on the analysis of international experience. The study explores modern management, logistics, and marketing approaches applied in developed countries and substantiates the possibilities of adapting these practices to domestic retail enterprises. Furthermore, practical recommendations are developed to enhance efficiency through the development of e-commerce and service culture.

Key words: retail trade, e-commerce, trade services, logistics, marketing, service culture, efficiency, management system.

Аннотация. В данной статье исследуются вопросы повышения эффективности предприятий розничной торговли на основе анализа зарубежного опыта. В ходе исследования изучены современные управленческие, логистические и маркетинговые подходы, применяемые в развитых странах, а также обоснованы возможности их адаптации к деятельности отечественных предприятий розничной торговли. Кроме того, разработаны практические рекомендации по повышению эффективности за счет развития электронной торговли и культуры обслуживания.

Ключевые слова: розничная торговля, электронная коммерция, торговые услуги, логистика, маркетинг, культура обслуживания, эффективность, система управления.

KIRISH

Bugungi kunda jahon iqtisodiyotida chakana savdo xizmat ko'rsatish sohasining eng muhim va tez rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Aholining turmush darajasi oshib borishi, iste'mol madaniyatining shakllanishi hamda raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi chakana savdo korxonalarining faoliyatini yanada takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda. Shu bois, chakana savdo xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda samaradorlikni oshirish masalasi nafaqat iqtisodiy, balki muhim ijtimoiy ahamiyatga ham ega bo'lib bormoqda.



Rivojlangan davlatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, chakana savdo tarmog'i faoliyatini samarali tashkil etish iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Xususan, AQSh, Germaniya, Yaponiya, Fransiya, Xitoy, Janubiy Koreya va boshqa rivojlangan mamlakatlarda chakana savdo korxonalari faoliyatini modernizatsiya qilish, logistika tizimini takomillashtirish, marketing strategiyalarini samarali qo'llash hamda raqamli texnologiyalarni keng joriy etish orqali yuqori natijalarga erishilmoqda. Bu mamlakatlarda savdo jarayonlarini avtomatlashtirish, elektron savdo platformalarini rivojlantirish, mijozlar bilan munosabatlarni boshqarish tizimlari (CRM) va savdo jarayonlariga tegishli ma'lumotlarni tahlil qilish texnologiyalaridan foydalanish orqali chakana savdo korxonalari faoliyati samaradorligi sezilarli darajada oshmoqda.

Chakana savdo korxonalarining samaradorligi ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ularga savdo jarayonlarini samarali tashkil etish, zamonaviy boshqaruv usullarini qo'llash, marketing faoliyatini rivojlantirish, logistika tizimini takomillashtirish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish kabilar kiradi. Shu bilan birga, iste'molchilarning ehtiyoj va talablarini chuqur o'rganish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish hamda mijozlarga qulay sharoitlar yaratish ham chakana savdo korxonalarining samaradorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Rivojlangan davlatlarda aholiga savdo xizmatlari asosan supermarket va gipermarketlar tizimi orqali ko'rsatiladi va ularning jami savdo aylanmasidagi ulushi Buyuk Britaniyada 89 foiz, Germaniyada 85 foiz va Fransiya 80 foizni tashkil etadi [1]. Sotilayotgan tovarlar sifatiga kafolat berish, aholiga yuqori madaniyatli savdo xizmatlarini ko'rsatish hamda iste'molchilar huquqlarining himoyasini ta'minlash uchun zarur sharoitlar yaratilgan. Chunki shu yo'l bilan zamonaviy moddiy-texnika bazasini yaratish, sifatli savdo xizmatlarini ko'rsatish, moliyaviy holatni mustahkamlash, faoliyat samaradorligini oshirish, shuningdek, raqobatbardoshlikni kuchaytirish imkoniyati yaratiladi.

Hozirgi globallashtirish jarayonida savdo sohasida xalqaro tajribani o'rganish va uni milliy iqtisodiyot sharoitiga moslashtirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Chunki xorijiy mamlakatlarda qo'llanilayotgan ilg'or boshqaruv usullari, innovatsion texnologiyalar hamda marketing strategiyalari chakana savdo korxonalarining samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Ayniqsa, savdo jarayonlarida elektron tijorat, omnikanal savdo tizimi, logistika jarayonlarini optimallashtirish hamda mijozlarga yo'naltirilgan marketing yondashuvlari keng qo'llanilmoqda.

O'zbekiston iqtisodiyotida ham chakana savdo tarmog'ini rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish davlat iqtisodiy siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Xususan, aholiga savdo xizmatlari ko'rsatish hajmi va sifatini oshirish, savdo infratuzilmasini yanada rivojlantirish, elektron tijorat va raqamli platformalarni joriy etish natijasida savdo korxonalari samaradorligi oshib bormoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida [2]: "Respublika hududlarida savdo infratuzilmasini rivojlantirish, bunda har bir hududda yirik ulgurji savdo markazlari, yirik tuman va shaharlarda kamida 3 tadan zamonaviy savdo markazlarini tashkil etish" savdo sohasidagi muhim vazifalardan biri sifatida belgilab berilgan.

Shu nuqtai nazardan, rivojlangan mamlakatlarning chakana savdo tarmog'idagi ilg'or tajribasini o'rganish va uni mahalliy sharoitga moslashtirish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Chakana savdo xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda samaradorlikni oshirish masalasi iqtisodiyot, marketing va menejment sohalarida faol tadqiqot olib borilayotgan muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi.

Savdo korxonalari samaradorligini oshirishning ayrim nazariy, uslubiy va amaliy jihatlarini xorijlik A. Kriye [3], J. Jalle [4], F. Kotler [5], M. Porter [6], D. Ferni [7] kabi iqtisodchi olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Xususan, D. Ferni elektron savdoni rivojlantirish va mijozlarga xizmat ko'rsatish madaniyatini oshirish orqali chakana savdo korxonalarida samaradorlikni oshirish yo'llarini o'z tadqiqotlarida keltirib o'tgan.

MDH olimlaridan V. Snigereva [8] chakana savdo korxonalarida tovarlar assortimentini boshqarish va savdo xizmatlarini ko'rsatish orqali samaradorlikni oshirish masalalarini, S. Sisoyeva [9] esa xaridorlarga tovarlarni sotish jarayonida ko'rsatiladigan asosiy va qo'shimcha savdo xizmatlari orqali samaradorlikni oshirish masalalarini o'z ilmiy ishlarida batafsil yoritgan.

O'zbekistonlik olimlardan A.S. Soliyev [10], B.A. Abdukarimov [11], M.Q. Pardayev [12], M.E. Po'latov [13], O.M. Pardayev [14], F.B. Abdukarimov [15], U. Normurodov [16]lar tomonidan chakana savdo faoliyatini rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish masalalari o'rganilgan. Jumladan, U. Normurodov savdo xodimlarining ma'lumot darajasi, malaka darajasi va mehnat unumdorligi o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlikning savdo xizmatlari turlari xususiyatlaridan kelib chiqqan holdagi "maqbul variatsiyasi"ni tanlash orqali savdo korxonalari samaradorligini oshirishga asoslangan yondashuvni taklif etgan.



Yuqorida keltirilgan olimlarning ilmiy ishlarida savdo infratuzilmasini rivojlantirish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, marketing tadqiqotlarini keng qo'llash hamda logistika tizimini takomillashtirish zarurligi ta'kidlanadi. Shu bilan birga, mamlakatimizda savdo xizmatlarini modernizatsiya qilish, zamonaviy savdo texnologiyalarini joriy etish va elektron savdo tizimini rivojlantirish orqali chakana savdo korxonalarining samaradorligini oshirish imkoniyatlari tahlil qilingan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ilmiy adabiyotlarda chakana savdo korxonalarining samaradorligini oshirish bo'yicha turli yondashuvlar mavjud bo'lsa-da, ularning aksariyati marketing strategiyalarini rivojlantirish, logistika tizimini optimallashtirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirishga qaratilgan. Shu sababli, xorijiy mamlakatlar tajribasini chuqur o'rganish va ularni milliy iqtisodiyot sharoitiga moslashtirish ilmiy va amaliy jihatdan muhim ahamiyatga ega.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot ishida chakana savdo xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalarda samaradorlikni oshirishning xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish va ularni tahlil qilishga qaratilgan ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Tadqiqot jarayonida iqtisodiy jarayonlarni kompleks o'rganishga imkon beruvchi nazariy va amaliy tadqiqot usullari qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, chakana savdo korxonalarining samaradorligini oshirishda zamonaviy boshqaruv usullaridan foydalanish, marketing strategiyalarini takomillashtirish, logistika tizimini optimallashtirish hamda raqamli texnologiyalarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli, mazkur tadqiqot doirasida xorijiy mamlakatlarda chakana savdo korxonalarining samaradorligini oshirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar o'rganildi.

Tadqiqot natijasida AQSh, Yaponiya, Germaniya va Janubiy Koreya kabi rivojlangan mamlakatlarda chakana savdo korxonalari faoliyatida omnikanal savdo tizimi keng qo'llanilishi aniqlandi. Bu tizim iste'molchilarga mahsulotlarni turli kanallar orqali — an'anaviy do'konlar, internet platformalari, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali xarid qilish imkonini beradi. Natijada mijozlar uchun qulaylik oshadi, chakana savdo tovar aylanmasi ortadi va korxona foydasi barqaror ravishda ko'payadi.

Bundan tashqari, xorijiy mamlakatlar tajribasida logistika va ta'minot zanjiri boshqaruvi chakana savdo samaradorligining muhim omillaridan biri sifatida qoraladi. Yirik savdo tarmoqlari tovarlarni yetkazib berish jarayonlarini avtomatlashtirish, omborlarni raqamlashtirish va logistika xarajatlarini optimallashtirish orqali xarajatlarni kamaytirishga erishmoqda. Masalan, rivojlangan davlatlarda logistika markazlari, avtomatlashtirilgan ombor tizimlari va real vaqt rejimida ishlaydigan monitoring tizimlari keng joriy etilgan.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, chakana savdo samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalar va elektron tijorat ham muhim rol o'ynaydi. Elektron savdo platformalarining rivojlanishi natijasida savdo jarayonlari tezlashadi, iste'molchilar bilan aloqalar mustahkamlanadi hamda marketing faoliyatining samaradorligi ortadi. Shu bilan birga, katta ma'lumotlar (Big Data) va sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish orqali iste'molchilar xatti-harakatlarini tahlil qilish va talab prognozini aniqlash imkoniyati yaratiladi.

Xorijiy tajribada chakana savdo korxonalarining samaradorligini oshirishda mijozlarga yo'naltirilgan marketing strategiyalari ham muhim ahamiyat kasb etadi. Korxonalar mijozlar ehtiyojlarini chuqur o'rganish, individual marketing yondashuvlarini qo'llash hamda xizmat ko'rsatish sifatini oshirish orqali mijozlar sodiqligini mustahkamlashga erishmoqda. Masalan, sodiqlik dasturlari, chegirma tizimlari va individual takliflar mijozlarni jalb qilishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, xorijiy mamlakatlar tajribasida chakana savdo xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar samaradorligini oshirish quyidagi asosiy yo'nalishlar orqali amalga oshiriladi: savdo jarayonlarini raqamlashtirish, logistika tizimini takomillashtirish, marketing strategiyalarini rivojlantirish va mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish. Ushbu yondashuvlar chakana savdo korxonalarining samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish va daromadlarni ko'paytirishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, o'rganilgan xorijiy tajriba chakana savdo sohasida innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, elektron tijorat platformalarini rivojlantirish hamda logistika tizimini modernizatsiya qilish orqali savdo korxonalarining samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkinligini ko'rsatadi. Mazkur natijalar chakana savdo tizimini rivojlantirishda ilmiy-amaliy ahamiyatga ega bo'lib, milliy iqtisodiyot sharoitida ham ushbu tajribalarni qo'llash imkoniyatlarini ko'rsatib beradi.

Tadqiqot natijasida rivojlangan xorijiy mamlakatlarda chakana savdo korxonalari samaradorligini oshirish yo'llari qiyosiy tahlil qilindi (1-jadval).



1-jadval. Rivojlangan xorijiy mamlakatlarda chakana savdo korxonalari samaradorligini oshirish yo'llari

Davlat	Chakana savdo tizimining asosiy xususiyatlari	Samaradorlikni oshirishdagi imkoniyatlari	O'zbekiston chakana savdo korxonalari uchun takliflar
AQSh	Yirik savdo tarmoqlari (Walmart, Costco), rivojlangan elektron tijorat, omnikanal savdo tizimi keng qo'llaniladi	Onlayn va oflayn savdoni integratsiya qilish, Big Data orqali mijoz talabini tahlil qilish, logistika markazlari orqali tezkor yetkazib berish	Savdo korxonalarida onlayn savdo platformalarini rivojlantirish, mobil ilovalar orqali savdoni tashkil qilish, mijoz ma'lumotlari asosida marketing strategiyasini ishlab chiqish
Germaniya	Logistika tizimi va savdo infratuzilmasi yuqori darajada rivojlangan, diskont savdo formatlari (Aldi, Lidl) keng tarqalgan	Xarajatlarni minimallashtirish, samarali ta'minot zanjiri, logistika markazlari orqali tovar harakatini optimallashtirish	Savdo korxonalarida logistika jarayonlarini optimallashtirish, diskont savdo tizimlarini joriy etish, ombor boshqaruvi raqamlashtirish
Yaponiya	Yuqori texnologiyali savdo tizimi, avtomatlashtirilgan do'konlar, xizmat ko'rsatish madaniyati juda rivojlangan	Savdo jarayonlarini avtomatlashtirish, robotlashtirilgan omborlar, mijozlarga yuqori darajadagi xizmat ko'rsatish	Chakana savdo do'konlarida "Self-service" kassalarini joriy etish, xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, savdo jarayonlarini raqamlashtirish
Janubiy Koreya	Raqamli texnologiyalar asosida savdo, mobil savdo tizimi va tezkor yetkazib berish xizmatlari rivojlangan	Mobil ilovalar orqali savdo, tezkor logistika tizimi, raqamli marketingdan keng foydalanish	Savdo korxonalarida mobil savdo platformalarini rivojlantirish, marketing kommunikatsiyalarida ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish
Xitoy	Elektron tijorat juda rivojlangan (Alibaba, JD), raqamli to'lov tizimlari keng qo'llaniladi	QR to'lov tizimlari, elektron savdo platformalari, logistika va yetkazib berishning tezkor tizimi	Chakana savdo korxonalarida elektron savdo platformalarini keng joriy etish, raqamli to'lov tizimlarini rivojlantirish, "marketplace" tizimlaridan foydalanish
Fransiya	Yirik savdo markazlari va supermarketlar tarmog'i rivojlangan, marketing strategiyalariga katta e'tibor beriladi	Savdo markazlari orqali ko'p funksiyali xizmat ko'rsatish, marketing va reklama strategiyalarini faol qo'llash	Savdo markazlarida marketing tadbirlarini tashkil qilish, savdo muhitini yaxshilash, mijozlar sodiqligi dasturlarini joriy etish

1-jadvalda keltirilgan ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, rivojlangan xorijiy mamlakatlarda chakana savdo korxonalarining samaradorligini oshirishda raqamli texnologiyalarni joriy etish, logistika tizimini takomillashtirish, omnikanal savdo tizimidan foydalanish hamda mijozlarga yo'naltirilgan marketing strategiyalarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Ushbu tajribalarni mamlakatimiz chakana savdo korxonalari faoliyatida qo'llash savdo jarayonlarining samaradorligini oshirish, xarajatlarni kamaytirish, savdo madaniyatini yuksaltirish orqali iste'molchilarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash hamda foyda hajmini oshirish imkonini beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalariga ko'ra, AQSh, Germaniya, Yaponiya, Fransiya, Janubiy Koreya va Xitoy kabi davlatlarda chakana savdo tizimi yuqori darajada rivojlangan bo'lib, ushbu mamlakatlarda savdo jarayonlarini avtomatlashtirish, elektron tijorat platformalarini rivojlantirish, logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish hamda marketing kommunikatsiyalaridan samarali foydalanish orqali savdo korxonalarining samaradorligi oshirilmoqda. Ushbu tajribalar chakana savdo korxonalarida samaradorlikni oshirishda innovatsion yondashuvlarning muhim rol o'ynashini ko'rsatadi.

Shuningdek, o'rganilgan xorijiy tajriba chakana savdo korxonalarida omnikanal savdo tizimidan foydalanish, raqamli to'lov tizimlarini keng joriy etish, logistika jarayonlarini optimallashtirish hamda mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish orqali savdo faoliyatining samaradorligini sezilarli darajada oshirish mumkinligini ko'rsatdi. Bu esa chakana savdo korxonalarining foydasini ko'paytirish, xarajatlarni kamaytirish va iste'molchilar ehtiyojlarini to'liq qondirish imkonini beradi.



Tadqiqot natijalari asosida mamlakatimiz chakana savdo korxonalari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha quyidagi taklif va tavsiyalar ishlab chiqildi:

Chakana savdo jarayonlarini raqamlashtirishni kengaytirish. Savdo korxonalarida elektron savdo platformalari, mobil ilovalar va onlayn buyurtma tizimlarini joriy etish orqali chakana savdo tovar aylanmasini oshirish mumkin.

Omnikanal savdo tizimini rivojlantirish. An'anaviy savdo do'konlari bilan bir qatorda internet do'konlar, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlar orqali savdo faoliyatini yo'lga qo'yish iste'molchilarga qulaylik yaratadi.

Logistika va ta'minot zanjirini takomillashtirish. Tovarlarini yetkazib berish jarayonlarini optimallashtirish, omborlarni avtomatlashtirish hamda logistika markazlarini tashkil etish chakana savdo korxonalari faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Mijozlarga yo'naltirilgan marketing strategiyalarini qo'llash. Iste'molchilarning ehtiyojlarini o'rganish, sodiqlik dasturlarini joriy etish va individual marketing yondashuvlarini qo'llash orqali mijozlar bazasini kengaytirish mumkin.

Savdo xizmatlari sifatini oshirish. Xizmat ko'rsatish darajasini yuksaltirish, savdo madaniyatini yaxshilash, savdo xodimlarining malakasini oshirish hamda zamonaviy savdo texnologiyalarini joriy etish zarur.

Xulosa qilib aytganda, xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish va uni milliy iqtisodiyot sharoitiga moslashtirish chakana savdo xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar faoliyati samaradorligini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu yondashuvlar mamlakat chakana savdo tarmog'ining barqaror rivojlanishiga, savdo xizmatlari ko'rsatish sifatining oshishiga hamda chakana savdo korxonalari samaradorligining ortishiga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Eurostat; Euromonitor; AT Kearney.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmoni. <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>
3. Крие А., Жаллэ Ж. Внутренняя торговля / пер. с фр. – М.: А/О «Прогресс» – «Универс», 2005. – 192 с.
4. Ферни Дж. и др. Принципы розничной торговли / пер. с англ. Сапциной У. – М.: ЗАО «Олимп-Бизнес», 2008. – 416 с.
5. Котлер Ф. Основы маркетинга (краткий курс) / пер. с англ. – М.: «Вильямс», 2007.
6. Портер М. Конкурентная стратегия: методика анализа отраслей и конкурентов / пер. с англ. – 4-е изд. – М.: Альпина Паблишер, 2011. – 453 с.
7. Ферни Дж. и др. Принципы розничной торговли / пер. с англ. Сапциной У. – М.: ЗАО «Олимп-Бизнес», 2008. – 416 с.
8. Снегирева В. Розничный магазин. Управление ассортиментом по товарным категориям. – СПб.: Питер, 2005. – 416 с.
9. Сысоева С.В., Крок Г.Г. Большая книга директора магазина. – СПб.: Питер, 2009. – 432 с.
10. Soliyev A., Buzrukxonov S. Marketing. Bozorshunoslik: darslik. – T.: "Iqtisod-moliya", 2010. – 424 b.
11. Abdugarimov B.A. Ichki savdo iqtisodiyoti: darslik. – T.: «Iqtisod-moliya», 2010.
12. Abdugarimov B.A., Kamilova N.A., Abdugarimov F.B. Aktual'nye voprosy razvitiya trgovli v Uzbekistane: monografiya. – T.: "Iqtisodiyot", 2010. – 96 s.
13. Pardaev M.Q. va boshq. Savdo iqtisodiyoti muammolari: o'quv qo'llanma. – T.: "Iqtisod-moliya", 2016.
14. Pardaev M.Q., Po'latov M.E. va boshq. Marketing tadqiqotlarida statistik tahlil: o'quv qo'llanma. – T.: "Fan va texnologiya", 2018. – 448 b.
15. Pardaev O.M. Mahsulotlarni saqlab sotish xizmatlari samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari: monografiya. – T.: "Fan va texnologiya", 2017. – 284 b.
16. Abdugarimov F.B. Savdoda bozor mexanizmini takomillashtirish va samaradorligini oshirish yo'llari (Samarqand viloyati misolida): i.f.n. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – Samarqand: SamSI, 2011. – 156 b.
17. Normurodov U.N. O'zbekistonda savdo korxonalari raqobatbardoshligi va iqtisodiy samaradorligini oshirish: i.f.f.d. (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. – Samarqand, 2022.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 3

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>